

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2020.I.16.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

XADJAEV RUSTAMXON MAHMUDXONOVICH

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA YIRIK SHAHARLARNING
UY-JOY FONDINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH
(Toshkent shahri misolida)

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 332.87 (575.1)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD) po
ekonomicheskim naukam**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Economics Sciences**

XADJAEV RUSTAMXON MAHMUDXONOVICH

Raqamlashtirish sharoitida yirik shaharlarning uy-joy fondini boshqarishni
takomillashtirish (Toshkent shahri misolida).....3

ХАДЖАЕВ РУСТАМХОН МАХМУДХОНОВИЧ

Совершенствование управления жилищным фондом крупных городов в
условиях цифровизации (на примере города Ташкента).....29

KHADZHAEV RUSTAMKHON MAKHMUDKHONOVICH

Improving the management of the housing stock of large cities in the conditions of
digitization (based on the example of the city of Tashkent).....57

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2020.I.16.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

XADJAEV RUSTAMXON MAHMUDXONOVICH

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA YIRIK SHAHARLARNING
UY-JOY FONDINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH
(Toshkent shahri misolida)**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.2.PhD/Iqt3118 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Nurimbetov Ravshan Ibragimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Raximova Dilduza Nigmatovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayarov Shamsiddin Amanullaevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.12.2020.I.16.02. raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "19" 07 soat 1200 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdu@tsue.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (1467 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-01-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 2 » 07 kuni tarqatilgan.

(2024 yil « 1 » 07 dagi № 24 raqamli reestr bayonnomasi)



G.K. Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.D. Djurabaev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

R.X. Karlibaeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon maydonida jadal rivojlanayotgan global integratsiya sharoitida megatrendlaridan biri hisoblangan urbanizatsiya jarayonlarining ahamiyati kuchayib bormoqda. Ushbu muammolarga javoban “bir qator davlatlar, xususan AQSh 2015 yilda, Xitoy va Hindiston 2013 yilda “aqli shahar”larni rivojlantirish tashabbusi bilan chiqdilar”¹. Shahar infratuzilmasini rivojlantirish, yashash uchun xavfsiz, ekologik toza va qulay muhit yaratish, insonga yo‘naltirilgan xizmatlarni joriy etish, shahar resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish – bular “aqli shahar” va “aqli hudud”larni rivojlantirish yo‘nalishlarining bir qismidir. Texnologik yechimlar uy-joy kommunal xo‘jaligini boshqarishda (“aqli” o‘lchagichlar, binolarning holatini kuzatish tizimlari, turar-joy egalari bilan elektron aloqa), bino va hududlarni loyihalashda (BIM texnologiyalari) allaqachon qo‘llanilmoqda. Hozirgi kunda “aqli shahar” loyihasining ko‘lami juda xilma-xil bo‘lib, turli mamlakatlarda jadal amalga oshirilmoqda.

Jahonda raqamlashtirish sharoitida yirik shaharlarning uy-joy fondini boshqarishni takomillashtirish masalalariga yo‘naltirilgan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish orqali aholining hayot sifatini ta‘minlash, aholiga isitish, yoritish, uy-joy, obodonlashtirish, kanalizatsiya va sivilizatsiyaning boshqa afzal jihatlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatishda har bir iste‘molchiga individual yondashuvni ta‘minlash, megapolislarda shahar xo‘jaligini boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish, har bir yirik shahar va hududning o‘ziga xos muammolari va o‘shirish nuqtalarini aniqlash va kompleks rivojlanish loyihasiga kiritish kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot hamda aholi turmush farovonligini ta‘minlashda yirik shaharlarning uy-joy fondini boshqarishni takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash”² zarurligi ta‘kidlangan. Shuningdek, aholini turmush sharoitini yaxshilashni ta‘minlash bo‘yicha bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda arzon uy-joylar qurish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya, va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi ushbu muammolarning ilmiy yechimiga yo‘naltirilgan tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi va raqamlashtirish sharoitida yirik shaharlarning uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

¹What-is-a-smart-city TWI Global - <https://www.twi-global.com/technical-knowledge/faqs/what-is-a-smart-city>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/docs/5841063>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021 yil 19 iyundagi PQ-5152-son “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020 yil 17 martdagi PQ-4642-son “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017 yil 24 apreldagi PQ-2922-son “2017 - 2021 yillarda ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Uy-joy fondini boshqarish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ko‘pgina xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan bo‘lib, ular orasida D.Makdonnel, A.Straub, R.Liias, A.Muchinskiy, K.Suszinska, N.Edadan, M.Trojanek, A.Ostanska, S.Deylmann, A.Kerns, X.Priemus, A.Bennadji va boshqalarning ishlari alohida e‘tiborga sazovor³. Mazkur olimlarning ishlari uy-joy fondini boshqarishning tushunchaviy asoslari, nazariy va uslubiy yondashuvlarni ochib beradi.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan P.G.Graboviy, S.G.Sheina, V.V.Buzirev, A.G.Granberg, N.Ye.Simionova, S.I.Kruglik, T.Yu.Ovsiyannikova, Ye.V.Bedrina, R.M.Aloyan, L.A.Seferyan, A.M.Goncharov kabi olimlarning ishlari uy-joy fondini boshqarishning nazariy va uslubiy masalalariga bag‘ishlangan⁴.

³Bogataj, D., McDonnell, D. R., & Bogataj, M. (2016). Management, financing and taxation of housing stock in the shrinking cities of aging societies. *International journal of production economics*, 181, 2-13.; Straub, A. (2002). Strategic technical management of housing stock: lessons from Dutch housing associations. *Building Research & Information*, 30(5), 372-381.; Liias, R. (1998), "Housing stock: the facilities for future development", *Facilities*, Vol. 16 No. 11, pp. 288-294. <https://doi.org/10.1108/02632779810233359>; Muczyński, A. (2022). Organizational model of municipal housing stock management in the contracting system—A case study of Poland. *Land Use Policy*, 115, 106049.; Suszyńska, K. (2015). Tenant participation in social housing stock management. *Real Estate Management and Valuation*, 3(23), 47-53.; Al-Hathloul, S. A., & Edadan, N. (1992). Housing stock management issues in the kingdom of Saudi Arabia. *Housing Studies*, 7(4), 268-279.; Trojanek, M. (2014). Carrying out municipal tasks in the Scope of housing stock management—Case study of Poznań city. *Real Estate Management and Valuation*, 22(3), 85-92.; OSTAŃSKA, A. (2018). Resident opinion surveys as a contribution to improved housing stock management. *Architecture, Civil Engineering, Environment*, 9(2).; Deilmann, C., Effenberger, K. H., & Banse, J. (2009). Housing stock shrinkage: vacancy and demolition trends in Germany. *Building Research & Information*, 37(5-6), 660-668.; Son, H. P., & Kearns, A. (1998). Difficult to let housing association stock in England: property, management and context. *Housing Studies*, 13(3), 391-414.; Priemus, H. (1998). Redifferentiation of the urban housing stock in the Netherlands: a strategy to prevent spatial segregation? *Housing Studies*, 13(3), 301-310.; Bennadji, A., Seddiki, M., Alabid, J., Laing, R., & Gray, D. (2022). Predicting Energy Savings of the UK Housing Stock under a Step-by-Step Energy Retrofit Scenario towards Net-Zero. *Energies* 2022, 15, 3082.

⁴Основы организации и управления жилищно-коммунальным комплексом /Под общ. ред. проф. П.Г. Грабового. – М.: Изд-во «АСВ», – 2004. –528 с.; Бузырев, В. В. Реновация жилых домов как важный фактор увеличения жизненного цикла жилищного фонда в регионе / В. В. Бузырев // Проблемы современной экономики. – 2012. – № 4(44). – С. 285-288.; Гранберг А. Г. Основы региональной экономики. – М.: Изд. Дом

Ushbu iqtisodchi-olimlarning bir qator ilmiy ishlari fundamental tavsifga ega, sababi ularda uy-joy sohasini rivojlantirish istiqbollari asoslanib, boshqaruv modellarini institutsionallashtirish va samarali tizim yaratish masalasi ko'tarilmoqda.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, uy-joy fondi va kommunal-muhandislik infratuzilmasi ob'ektlarini raqamlashtirish masalalari olimlar tomonidan o'rganilgan, ular orasida G.Vakka, M.Mangia, M.Kastellano-Roman, O.A.Kursakova, N.S.Alekseeva, Yu.A.Gureva, A.A.Patsukov va boshqalarning ilmiy ishlari e'tiborga loyiq⁵.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan R.I.Nurimbetov, A.D.Metyakubov, T.A.Xasanov, I.X.Davletov, D.A.Berdieva, A.S.Sultanov, A.Ismailov va boshqalarning ilmiy ishlari e'tiborga loyiq⁶. Bu olimlarning asarlarida uy-joy fondi

ГУ ВШЭ, 2004.; Симионова, Н. Е. Актуальные проблемы реализации интеграционных проектов в жилищно-коммунальной сфере / Н. Е. Симионова, Р. В. Бабенко // Управление проектами и программы. – 2005. – № 1. – С. 54-62.; Круглик, С.И. Проблемы теории и практики управления жилищной сферой мегаполисов / С. И. Круглик // Проблемы современной экономики. – 2008. – №1 (25).; Овсянникова, Т. Ю. Компаративные межстрановые исследования жилищной сферы / Т. Ю. Овсянникова, О. В. Рабцевич, И. В. Югова // Жилищные стратегии. – 2021. – Т. 8. – № 4. – С. 317-342. – DOI 10.18334/zhs.8.4.113978.; Бедрина Е.В., Гончаров А.М. Участие территориального общественного самоуправления в схеме управления многоквартирными домами // УрФО: Строительство и ЖКХ. – 2007. – № 4.; Алоян Р.М., Кузина Т.Н. Современные тенденции развития жилищного фонда: региональный аспект // Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение. – 2008. – № 2. – С. 5-8.; Сеферян Л.А. Особенности формирования кластерной структуры при воспроизводстве жилищного фонда // Вестник УрФУ. Серия: Экономика и управление. – 2011. - № 1. – С. 76-83.; Минеева И.В. Управление жилищным фондом муниципального образования: дисс.... канд. экон. наук. – Пенза, 2007. – С. 172; Гончаров А.М. Формирование организационно-экономического механизма управления жилищным фондом крупного города (на примере города Екатеринбурга): дисс.... канд. экон. наук. – Екатеринбург, 2008.;

⁵Vacca, G., Quaquero, E., Pili, D., &Brandolini, M. (2018). Integrating BIM and GIS data to support the management of large building stocks.; Mangia, M., Lazoi, M., & Mangialardi, G. (2021, July). Digital Management of Large Building Stocks: BIM and GIS Integration-Based Systems. In IFIP International Conference on Product Lifecycle Management (pp. 133-150). Springer, Cham.; Castellano-Román, M., Garcia-Martinez, A., & Pérez López, M. L. (2022). Social Housing Life Cycle Management: Workflow for the Enhancement of Digital Management Based on Building Information Modelling (BIM). Sustainability, 14(12), 7488.; Куракова, О. А. Использование BIM-технологий на стадии эксплуатации объектов недвижимости / О. А. Куракова, Х. Макеева // Недвижимость: экономика, управление. – 2018. – № 2. – С. 55-59.; Алексеева, Н. С. Применение BIM- и ГИС-технологий в строительстве / Н. С. Алексеева // Экономика и управление: тенденции и перспективы: материалы I Межвузовской научно-практической конференции факультета экономики и управления, Санкт-Петербург, 02–03 марта 2020 года. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный архитектурно-строительный университет, 2020. – С. 217-221.; Гурьева, Ю. А. Российский опыт использования BIM-технологий на этапе эксплуатации объектов недвижимости / Ю. А. Гурьева, Е. М. Козлова // BIM-моделирование в задачах строительства и архитектуры : Материалы V Международной научно-практической конференции, Санкт-Петербург, 20–22 апреля 2022 года / Под общей редакцией А.А. Семенова. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный архитектурно-строительный университет, 2022. – С. 28-41. – DOI 10.23968/BIMAC.2022.004.; Ovsiannikova, T. Yu. Building information modelling systems: strategic objectives and realities of digital transformation in construction / T. Yu. Ovsiannikova, A. A. Patsukov // Real Estate: Economics, Management. – 2022. – No 1. – P. 13-18. – EDN VJSJCW.

⁶Нуримбетов Р. И. Жилищный фонд Республики Узбекистан: проблемы и перспективы развития //Инвестиции, градостроительство, недвижимость как драйверы социально-экономического развития территории и повышения качества жизни населения. – 2022. – С. 188-193.; Nurimbetov, R. I., &Metyakubov, A. D. (2020). Advanced housing fund management system as a tool for improving delivery of municipal services on client satisfaction. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 3177-3188.; ХасановТ. А. Тенденции развития жилищного хозяйства и особенности управления жилищным фондом в Узбекистане //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 6. – С. 181-187. ; Давлетов И. Х., Мамазаров О. Ш. Вопросы управления, сохранения и модернизации многоквартирного жилищного фонда //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 2. – С. 203-211.; Бердиева Д. А. Уй-жой фондини бошқаришни янада ривожлантириш ва турар жойларга хизмат кўратиш бозори //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2019. – №. 2. – С. 44-51.; Sultanov, A. (2020). Prospective foreign experience outcome implementations of housing fund management in Uzbekistan. Theoretical & Applied Science, (4), 201-207.; Исмаилов, А., Касимов, А., &Юлдашев, Г. (2022).

va uy-joy kommunal xo‘jaligini boshqarish bo‘yicha mamlakatimiz tajribasi, ushbu soha rivojiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar asoslab berib bayon etilgan.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning o‘rganilgan ilmiy ishlari uy-joy xo‘jaligini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini shakllantirishda turli omillar qanday muhim rol o‘ynashini aniq ko‘rsatib berdi. Mazkur yo‘nalishda tadqiqot olib borish zarurati dissertatsiyaning maqsad va vazifalarini belgilashga xizmat qildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-402104465 “Ko‘chmas mulk bozori turar joy sektorini rivojlanishiga xizmat qiluvchi “Serveying” elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha (2022-2023 y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamlashtirish sharoitida yirik shaharlarning uy-joy fondini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

uy-joy fondining mohiyati va xususiyatlarini boshqaruv nuqtai nazaridan tadqiq qilish va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

raqamlashtirish sharoitida uy-joy fondini boshqarishning asosiy yondashuvlari va vazifalarini o‘rganish;

O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini boshqarish tizimini tadqiq qilish va Toshkent shahri misolida uy-joy fondini boshqarish samaradorligi ko‘rsatichlarini baholash;

yirik shaharning uy-joy fondini boshqarishda zamonaviy innovatsion yondashuvlar va amaliyotlarni tadqiq qilish;

O‘zbekiston Respublikasida ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarish tizimini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi muammolarni aniqlash;

iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida uy-joy fondini rivojlantirish istiqbollari va tendensiyalarini tadqiq qilish;

raqamlashtirish sharoitida yirik shaharlarning uy-joy fondini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Toshkent shahrining ko‘p xonadonli uy-joy fondi hamda uning faoliyati va rivojlanishi uchun mas’ul bo‘lgan boshqaruv organlari tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti uy-joy fondini boshqarish va unga xizmat ko‘rsatish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida tuzilma-dinamika va omilli tahlil, statistik, matematik, grafik-tahlil, tizimli tahlil va sintez, ekonometrik tahlil va ilmiy prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “yirik shaharlarning uy-joy fondini boshqarish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni boshqaruvning barcha jabhalarini rejalashtirish,

nazorat qilish va muvofiqlashtirishni amalga oshirishda aholining xavfsizligi va ijtimoiy faravonligini ta'minlash jarayonlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishga qaratilgan harakatlar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

yirik shahar tumanlari kesimida uy-joy fondini boshqarishning alohida mustaqil jarayonlari bo'yicha xarajatlarning minimal hajmi va moliyaviy mablag'lardan foydalanishning yuqori samaradorligi darajalarini namunaviy me'yor sifatida belgilash hamda davriy ravishda mazkur me'yorlardan chetlanish holatlarini aniqlab, bartaraf etish choralarini qo'llab borish orqali uy-joy fondini boshqarishni takomillashtirish asoslangan;

uy-joy fondining yaroqlilik holatini ta'minlash, foydalanish va ta'mirlash xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar yoki tashkilotlarning faoliyati asosiy ko'rsatkichlarning monitoringi natijasida xizmat ko'rsatish xarajatlari oshiruvchi, sifat darajasini pasaytiruvchi hamda raqobatga to'sqinlik qiluvchi holatlar yoki ularni keltirib chiqarish ehtimoli aniqlangan taqdirda uni bajarish bo'yicha shartnoma tuzish huquqining mazkur xizmat bo'yicha o'tkazilgan tanlovning navbatdagi ishtirokchisiga avtomatik tarzda o'tishini ta'minlash taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondlari boshqaruv kompaniyalarini tashkil etish, faoliyatini rejalashtirish va boshqarish imkonini beruvchi ekonometrik modellar asosida 2030 yilga qadar uy-joylarni ishga tushirish o'rtacha hajmining aniq va intervalli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

innovatsion boshqaruv tizimida uy-joy kommunal xizmatlarini ko'rsatish jarayonini muvofiqlashtirish imkonini beradigan, uy-joy sohasi tomonidan ko'rsatiladigan har bir xizmat guruhining manfaatdor tomonlari va boshqaruv funksiyalari tavsifi bilan xizmatlarni innovatsion boshqarishni joriy etish bo'yicha takliflar asoslab berilgan;

foydalanish samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlari tizimiga erishishga yo'naltirilgan uy-joy ob'ektlarini boshqarishga tizimli yondashuvni amalga oshirish bilan yirik shaharning uy-joy fondini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar asoslab berilgan;

uy-joy kommunal xizmatlarini ko'rsatish jarayonini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi har bir xizmatlar guruhining manfaatdor tomonlari va boshqaruv funksiyalari tavsiflangan holda uy-joy sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlarning innovatsion boshqaruvini ta'minlash modeli taklif etilgan;

tarkibiy, funksional, resurs va axborot blokini o'z ichiga olgan tizimli yondashuv tamoyillarini hisobga olgan holda shahar uy-joy fondini boshqarish tizimini shakllantirish algoritmi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llanilgan yondashuv va usullar, rasmiy manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, boshqaruv kompaniyalaridan olingan ma'lumotlar, shuningdek xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy zahirasini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondini boshqarish tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, davlat organlari va uy-joy fondini boshqarish sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlarning o'zaro hamkorligi mexanizmlarini rivojlantirish, demokratik bozor munosabatlarinni takomillashtirish, shuningek uy-joy fondini boshqarish tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamlashtirish sharoitida yirik shaharlarning uy-joy fondini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "yirik shaharlarning uy-joy fondini boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmunini boshqaruvning barcha jabhalarini rejalashtirish, nazorat qilish va muvofiqlashtirishni amalga oshirishda aholining xavfsizligi va ijtimoiy faravonligini ta'minlash jarayonlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishga qaratilgan harakatlar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Upravlenie zatratami v stroitelstve (Qurilishda xarajatlarni boshqarish)" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 17 martdagi 106-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida fuqarolarning farovon yashashini ta'minlash va uy-joy kommunal xo'jaligini samarali boshqarish bo'yicha jarayonlarni tashkil etish va muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni to'liq bayon etish hamda talabalarda yirik shaharlarning uy-joy muhiti haqidagi chuqur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

yirik shahar tumanlari kesimida uy-joy fondini boshqarishning alohida mustaqil jarayonlari bo'yicha xarajatlarning minimal hajmi va moliyaviy mablag'lardan foydalanishning yuqori samaradorligi darajalarini namunaviy me'yor sifatida belgilash hamda davriy ravishda mazkur me'yorlardan chetlanish holatlarini aniqlab, bartaraf etish choralarini qo'llab borish orqali uy-joy fondini boshqarishni takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2023 yil 6 dekabrda 24-06/12769-sonli va Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining 2023 yil 25 dekabrda 2090/15-2-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Toshkent shahridagi uy-joy fondini boshqarish idoralarida uy-joy kommunal xizmatlarini ko'rsatish ko'rsatkichlari samaradorligi 15% o'sish sur'atiga erishilgan;

uy-joy fondining yaroqlilik holatini ta'minlash, foydalanish va ta'mirlash xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar yoki tashkilotlarning faoliyati asosiy ko'rsatkichlarning monitoringi natijasida xizmat ko'rsatish xarajatlarini oshiruvchi, sifat darajasini pasaytiruvchi hamda raqobatga to'sqinlik qiluvchi holatlar yoki ularni keltirib chiqarish ehtimoli aniqlangan taqdirda uni bajarish bo'yicha shartnoma tuzish huquqining mazkur xizmat bo'yicha o'tkazilgan tanlovning navbatdagi ishtirokchisiga avtomatik tarzda o'tishini ta'minlash taklifidan O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2023 yil 6 dekabrda 24-06/12769-sonli va Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining 2023 yil 25 dekabrda 2090/15-2-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida uy-joy fondidan foydalanish va ta'mirlash xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar yoki tashkilotlari tomonidan xizmat ko'rsatishning yuqori sifat darajasini ta'minlashga undovchi mexanizm yaratilgan;

O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondlari boshqaruv kompaniyalarini tashkil etish, faoliyatini rejalashtirish va boshqarish imkonini beruvchi ekonometrik modellar asosida 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan uy-joylarni ishga tushirish o'rtacha hajmining aniq va intervalli prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2023 yil 6 dekabrda 24-06/12769-sonli va Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining 2023 yil 25 dekabrda 2090/15-2-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Toshkent shahrida uy-joy fondining hajmi 2030 yilgacha 1122,6 mln kv.m.ni tashkil etishi va o'sish sur'ati 2021 yilgi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 barobarga oshishi prognoz ko'rsatkichlari uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarni samarali boshqarish imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda hamda 8 ta tezislarda, shunlardan 3 tasi xalqaro va 5 tasi respublika konferensiyalarida.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya, kirish, uchta bobga birlashtirilgan 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, predmet va ob'ektlari tavsiflangan, O'zbekiston

Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi to‘g‘risida, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hamjmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi **“Yirik shaharlarning uy-joy fondini boshqarishning nazariy asoslari”** bobida yirik shaharlarning uy-joy fondini samarali boshqarishning mohiyati va xususiyatlariga ta‘riflar berilgan. Raqamlashtirish sharoitida uy-joy fondini boshqarishning asosiy yondashuvlari va vazifalari aniqlangan. Yirik shaharlarning uy-joy fondini boshqarish muammolarini hal etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganilgan.

Aholini zamonaviy uy-joylar bilan ta‘minlash davlatning eng muhim ijtimoiy vazifasidir. O‘zbekiston Respublikasida uy-joy muammosiga jiddiy e‘tibor qaratilayotgani mamlakatimizda qabul qilingan ko‘plab me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Mazkur hujjatlarning asosiy vazifasi uy-joy muammosini hal etishda aholining ehtiyojmand qatlamini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy himoya qilish, shu bilan birga uy-joy qurilishi sohasining keyingi taraqqiyotini rag‘batlantirishdan iborat.

Uy-joy fondi tuzilishining xilma-xilligi mazkur sohani boshqarishni qiyin vazifa ekanligidan dalolat beradi, sabab fondagi har bir ob‘ekt noyob bo‘lib, rejasi, konstruksiyasi va eskirish darajasi bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Uy-joy fondi ob‘ektining bir qancha egalarining mavjudligi, resurslar bilan ta‘minlash va xizmat ko‘rsatish tashkilotlari orasidagi aloqalar, moliyaviy oqimlarning ko‘p bosqichli tizimining mavjudligi allaqachon murakkab boshqaruv jarayonini murakkablashtirmoqda.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qila turib, uy-joy fondi tuzilmasining tushunchalari tasnifi qanday o‘zgarganligini ko‘rish mumkin. A.N.Asaul o‘z tadqiqotlarida uy-joy fondi deganda yashash uchun yaroqli bo‘lgan barcha turar-joy binolarini nazarda tutadi⁷. V.V.Buzireva va L.G.Selyutina ishlarida uy-joy fondi shahar infratuzilmasi elementi, yashash xonalari va yordamchi xonalarni uy-joy fondi deb atagan⁸.

Shuni ta‘kidlash kerak-ki, uy-joy fondini tasniflashning turli xil yondashuvlari va usullari mavjud. Ko‘pincha, uy-joy fondini funksional eskirish belgilari bo‘yicha tasniflanadi. A.N.Asaul, S.N.Ivanov, I.V.Denisovalar marketing yondashuviga muvofiq, uy-joy fondini xonalar soni, foydalanish muddati va tasnifi, tashqi devor materialari, bino balandligi bo‘yicha tasniflashadi⁹. V.V.Buzirev va A.Yu.Plaxtiy uy-joy fondini munitsipal, tijorat, kommunal kvartiralar va daromad uylariga ajratishadi¹⁰.

⁷ Проблемы экономической оценки реконструкции объектов исторического центра Санкт-Петербурга / [А.Н. Асаул и др.]; Под ред. А.Н. Асаул. – СПб.: СПбГАСУ, 2003. – 118 с.

⁸Бузырев, В.В. Моделирование оптимальной структуры жилищного строительства в крупном городе / В.В. Бузырев, Л.Г. Селютина, А.О. Березин // Экономика строительства. – 2002. – №9. – С. 29-39.

⁹ Проблемы экономической оценки реконструкции объектов исторического центра Санкт-Петербурга / [А.Н. Асаул и др.]; Под ред. А.Н. Асаул. – СПб.: СПбГАСУ, 2003. – 118 с.

¹⁰Бузырев, В.В. Моделирование оптимальной структуры жилищного строительства в крупном городе / В.В. Бузырев, Л.Г. Селютина, А.О. Березин // Экономика строительства. – 2002. – №9. – С. 29-39.

L.G.Selyutina uy-joy fondini qavatlarini, iqtisodiy munosabatlar ob'ekti, narxi bo'yicha tavsiflaydi¹¹. Uy-joy fondi va uy-joy kommunal xo'jaligi orasidagi aloqalar A.N.Kirillova¹² va A.I.Romanova¹³ kabi olimlarning ishlarida tadqiq etilgan. Ularning fikricha, uy-joy fondi deganda mamlakatdagi yashash uchun yaroqli, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilishni talab qiluvchi turar-joy binolaridan iborat murakkab tizim tushinilishi kerak.

Uy-joy fondini boshqarish tizimi, uning qayta tiklanishi, xizmat ko'rsatilishi, ekspluatatsiyasi va boqaruvining zamonaviy bosqichi ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. L.A.Sefaryanning ishi alohida e'tiborga loyiq, dissertatsiya ishida uy-joy fondiga quyidagi ta'rifni keltiradi "Yirik shaharning uy-joy fondi - bu aholining uy-joy muhofazasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, mulkka egalik qilish va uni tasarruf etish nuqtai nazaridan, tumanlar va mikrorayonlar hududida joylashgan turar-joy binolari, shu jumladan mulkchilik shaklidan va texnik maqsadlaridan qat'i nazar, barcha binolar yashash xonalarining jamlanmasidir"¹⁴.

Aksariyat olimlarning fikriga ko'ra, uy-joy fondini tasniflashning asosiy xususiyati o'xshash texnik parametrlarning mavjudligi: kvartiralarining soni va o'rtacha hajmi, qurilish muddati, uy-joy fondining xizmat qilish muddatidan foydalanish maqsadlari va mulkchilik shakligacha.

Shubhasiz, aholini uy-joy bilan ta'minlash muammosini hal qilishda uy-joy qurilishi holati va mavjud uy-joy fondi, yashash sharoitlariga bo'lgan talablarning o'sishi hisobga olinadigan tizimli yondashuvga asoslanishi kerak. Shuni ta'kidlash kerak-ki, yashash sharoitlariga bo'lgan talablarning o'sishi nafaqat farovon yashash uchun umumiy talablarning o'sishiga, uning sanitariya-gigiena sifatini o'sishi, shuningdek aholining ijtimoiy tabaqalanishi tufayli iste'molchilar talablari har xil turdagi uy-joylarni qurish zarurati doirasini sezilarli darajada kengaytirishdan iborat.

Ta'kidlash lozim-ki, O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksiga muvofiq uy-joy fondi deganda inson yashashi uchun yaroqli bo'lgan turar joydan, shu jumladan uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylardan (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg'iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylardan) iborat bo'lgan fond¹⁵.

Mamlakat uy-joy fondining salmoqli qismi shaharlarda jamlangan. Shaharni qishloq joylaridan o'zining ahamiyati va xususiyatlari bilan ajralib turadigan aholi punkti deb atash mumkin. Shaharlar odatda zichroq aholiga, rivojlangan infratuzilmaga va turli xil ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarga ega. Ular madaniy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot markazlarini ifodalaydi. Shaharlarda turar-joy

¹¹ Селютина, Л.Г. Методологические проблемы оптимизации структуры жилищного фонда и жилищного строительства в крупном городе в современных условиях: Дис. ... док. экон. наук: 08.00.05 / Селютина Лариса Григорьевна. – Санкт-Петербург, 2002. – 340 с.

¹² Кириллова А. Н. Городское хозяйство как объект управления и планирования // Управление городским хозяйством и модернизация жилищно-коммунальной инфраструктуры. – М. : Просветитель, 2013. – С. 10-16.


¹³ Романова, А.И. Формирование доступной среды жилищного фонда / А.И. Романова, Д.О. Буркеев. – Научная мысль, НИЦ ИНФРА. – М, 2015. – 157 с.

¹⁴ Сеферян Л.А. Организация управления жилищным фондом крупного города для обеспечения устойчивого развития: диссертация ... кандидата технических наук: 05.02.22 - Иваново, 2018. - 219 с.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 7-modda. - <https://lex.uz/docs/-106136>

binolari, ofislar, do‘konlar, maktablar, kasalxonalar, bog‘lar, teatrlar, muzeylar va boshqalar kabi turli xil bino va inshootlarni topish mumkin. Ular ish, ta’lim, xordiq va boshqa xizmatlar uchun ko‘proq imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Uy-joy fondini boshqaruv ob’ekti sifatida ko‘rib chiqishda o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olish kerak. Uy-joy fondining ijtimoiy ahamiyati, mulkchilik shaklining va fondning o‘ziga xos xilma-xilligi kabi xususiyatlarining mavjudligi 1-rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Uy-joy fondining boshqaruv ob’ekti sifatida xususiyatlari¹⁶

Yirik shaharning uy-joy fondi sinergetik aloqalarning yuqori darajasiga erishish va yirik shahar salohiyatini to‘liq ochib berishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tizimli ravishda o‘rganilsa, yirik shaharlarning boshqa shaharlardan farqi shundaki, aholi punktlari ko‘lami oshgani sari shahar tizimida faoliyat ko‘rsatuvchi aholi punkti elementlari, shahar kommunikatsiyalari, shuningdek, shahar tizimida faoliyat ko‘rsatuvchi elementlarining tuzilishi murakkablashadi, kommunikatsiya aloqalari soni ko‘payadi. Misol uchun shaharni suv bilan ta‘minlash yoki chiqindilarni to‘plash va utilitatsiya qilishni keltirish mumkin. Shahar ko‘lamining o‘sib borishi bilan shaharni suv bilan ta‘minlash uchun suvni uzoq masofalarga o‘tkazish kerak, undan tashqari aholi jon boshiga suvga bo‘lgan ehtiyoj aholi soni o‘sishi bilan ortadi. Ma’lumki, bu holdagi miqdoriy o‘shish sifat o‘zgarishlariga olib keladi.

Agar yuz ming aholiga ega o‘nta shahardagi boshqaruvning umumiy murakkabligini million kishi aholisi bo‘lgan shahardagi boshqaruvning murakkabligi bilan solishtirsak, yirik shaharda u ancha murakkab bo‘ladi. Boz ustiga vaqt o‘tishi bilan bu farq o‘sib boraveradi, sabab innovatsion jarayonlarning jaddallashishi va odatda kichik shaharlar asosan tasdiqlangan innovatsiyalardan foydalanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, muallif tomonidan “yirik shaharning uy-joy fondini boshqarish” atamasiga ta’rif berildi.

¹⁶ Кахрамонов Х.Ш. Повышение эффективности управления жилищным фондом в условиях цифровизации: диссертация PhD: 08.00.13. – Ташкент, 2023. – 148 с.

Uy-joy fondini boshqarish – bu fuqarolarning turar-joy muhitida qulay yashashini ta'minlash jarayonlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Uy-joy fondini boshqarish doirasida boshqaruvning barcha jabhalarini rejalashtirish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish amalga oshiriladi, shu jumladan turar-joy binolarini saqlash, foydalanish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, kommunal resurslarni boshqarish, aholi bilan o'zaro munosabatlar, moliyaviy boshqaruv, aholining xavfsizligi va ijtimoiy faravonligini ta'minlashdir. Uy-joy fondini boshqarishning maqsadi – ko'p kvartirali uylarda aholi turmushining yuqori sifati va darajasini ta'minlash, shuningdek barcha uchun qulay yashash sharoitini yaratishdir¹⁷.

Bugungi kunda zamonaviy rivojlantirishda raqamalashtirish alohida ahamiyat kasb etib, tarkibiy o'zgarishlar asosida jarayonning an'anaviy qarashlarini sezilarli darajada o'zgartiradi va muammolarni sifat jihatdan yangi darajada hal qilish imkonini beradi. Keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqda-ki, uy-joy fondi boshqaruv ob'ekti sifatida katta o'zgaruvchanlik bilan ajralib turadi va bu hodisa uning rivojlanish jarayonlarini boshqarish nazariyasi va amaliyotida yetarli darajada hisobga olinmagan. Uy-joy fondini shakllantirish va saqlashning alohida elementlarini boshqarishning adekvat usullarini ishlab chiqish bo'yicha turli xil intensiv tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqoti davomida tahlil qilingan uy-joy fondini boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar natijasida shuni aytish mumkin-ki, uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida boshqaruv faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ikki darajali raqobat muhitini yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak, birinchisi uy-joy mulkdorlarining uy-joy fondini boshqarish bo'yicha buyurtmasi shakllanishini nazarda tutsa, ikkinchisi pudratchi tashkilotlar yoki uy-joy fondini boshqarishga xizmat ko'rsatuvchi resurslarni yetkazib beruvchi boshqaruv kompaniyalari o'rtasida raqobatni rivojlantirishni nazarda tutadi. Ko'pkvartirali uy-joy fondini boshqarish bo'yicha xalqaro tajribaga murojaat qilish ushbu soha bo'yicha strategik yechimlarni ishlab chiqishni jadallashtirish imkonini beradi. Mazkur sohaga investitsiyalarni jalb qilish va ishbilarmonlik muhiti uchun qulay va jozibadorligi uchun institutsional sharoitlarni yaratish lozim.


Dissertatsiyaning ikkinchi **“Yirik shaharlarda uy-joy fondini boshqarishning hozirgi holati tahlili”** bobida, O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondini boshqarish tizimi tahlil qilingan, Toshkent shahri misolida uy-joy fondini boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlari baholangan. Uy-joy fondini boshqarishda zamonaviy innovatsion usullar va amaliyotlari tadqiq etilgan.

Aholi sonining o'sishi O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondining ko'payishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasida uy-joy qurilish holati tahlili shuni ko'rsatadiki, so'ngi bir necha yil ichida qurilish sohasining jadal sur'atlar bilan o'sishi ijtimoiy soha ob'ektlari qurilishining jonlanishiga turtki bo'ldi. 2022 yil ma'lumotlariga ko'ra mamlakatdagi qurilish tashkilotlarining aksariyat qismi Toshkent shahriga (19,7%), shuningdek qurilish ishlari hajmining (27,8%) ham eng katta ulushi, yirik qurilish tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan, poytaxt

¹⁷ Muallif ishlanmasi

hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuni ta’kidlash lozimki, 2022 yilda yirik bo‘lmagan qurilish tashkilotlarida ham qurilish ishlarining (56,7%) oldingi davrga nisbatan 2,3%ga o‘shish tendensiyasi kuzatiladi.

Statistik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlarining so‘ngi 10 yil ichida sezilarli darajada o‘shishi, o‘z navbatida qurilish faoliyatining qanday o‘zgarganligi dinamikasini 2-rasmda ko‘rish imkonini beradi.



2-rasm. O‘zbekiston bo‘yicha qurilish ishlari o‘shishi dinamikasi¹⁸.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2009 yildan boshlab shahar aholisining ulushi qishloq aholisining ulushidan oshib keta boshladi. Biroq, O‘zbekistonda urbanizatsiyaning umumiy darajasi hamon iqtisodiyoti o‘tish davridagi mamlakatlarga nisbatan past. Urbanizatsiya jarayoni O‘zbekiston hukumati tomonidan sinchkovlik bilan nazorat qilinib, qishloqlarni rivojlantirish, ayniqsa, aholi turmush sharoitini yaxshilashni o‘zining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb biladi. Hatto yirik shaharlarda ham yakka tartibdagi turar-joy binolari uy-joy qurilishining muhim qismidir, mamlakatda ko‘p kvartirali uylarning ulushi qariyb 30%ni tashkil qilgan bir vaqtda.

Qurilish ishlari ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda uy-joy fondining nisbatini ham hisobga olish zarur, chunki 2022 yil O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondi 658,4 mln. kv.m. tashkil etdi. 2012 yildan 2022 yilgacha bo‘lgan davrda uy-joy fondining o‘shish sur‘ati 147,4%ni tashkil etib, o‘rtacha yillik o‘shish 12 mln. kv.m.dan sal ko‘proqni tashkil etmoqda (1-jadval). Turar-joylarni foydalanishga topshirish ko‘rsatkichlari ham mazkur sohada ijobiy dinamikani ko‘rsatmoqda, 2012 yilda 10162,1 ming kv.m. turar-joylar foydalanishga topshirilgan bo‘lsa, 2022 yilda bu ko‘rsatkich 1,4 barobarga oshib, 14189 ming kv.m.ni tashkil etdi.

¹⁸Statistik ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi


Mulkkchilik shakli bo'yicha uy-joy fondining taqsimlanishi¹⁹

№	Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	O'sish sur'ati, %
1	Uy-joy fondi, mln.kv.m.	507,6	521,2	536,8	548,9	636,4	658,4	129,7
2	Davlat uy-joy fondi, mln.kv.m.	3,5	3,3	3,5	3,4	3,3	3,5	100,0
	Foizda (%)	0,7	0,6	0,7	0,6	0,5	0,6	–
	Xususiy uy-joy fondi, mln.kv.m.	504,1	517,9	533,3	545,5	633,1	654,9	129,9
	Foizda (%)	99,3	99,4	99,3	99,4	99,5	99,4	–
3	Shaharda, mln.kv.m.	259,5	270,4	277,6	285,1	329,3	380,7	146,7
	Foizda (%)	51,1	51,9	51,7	51,9	51,7	58	–
	Qishloq joylarda, mln.kv.m.	248,1	250,8	259,2	263,8	307,1	274,2	110,5
	Foizda (%)	48,9	48,1	48,3	48,1	48,3	42	–
4	Odam boshiga uy-joy bilan ta'minlanganlik, kv.m.	15,7	15,8	15,8	16	16	18,2	115,9

Mamlakatimizda turar-joy binolarini foydalanishga topshirish, davlat va xususiy sektordagi o'sish sur'atlari yakka tartibdagi uy-joy qurilishi jadal su'atlar bilan davom etayotganidan dalolat beradi. Ta'kidlash lozimki, shaharda ijaraga beriladigan uy-joy sektorining rivojlanish darajasi past, bu turli daromadga ega bo'lgan guruhlar uchun uy-joy bozorida tanlovni va aholining harakatchanligini cheklaydi.

Toshkent shahrida turar-joy binolarini foydalanishga topshirish dinamikasining o'zgarishi to'g'risidaga ma'lumotlar 3-rasmdagi diagrammada keltirilgan. Turar-joy binolarini foydalanishga topshirish dinamikasi yangi qurilishlar hisobiga qanday o'zgarib borayotganini mazkur tahlildan ko'rish mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil Toshkent shahrida qurilish ishlarining keskin oshishi hisobiga 1738,6 ming kv.m. uy-joy foydalanishga topshirilgan, keyingi davrlarda bu ko'rsatkichlar pasaygan va 2022 yilda 704,4 ming kv.m. foydalanishga topshirilgan, zanjirsimon o'sish sur'atlari yildan yilga oshib borishini tavsiflaydi. Mazkur diagrammadagi ko'rsatkichlarni taqqoslab shuni ta'kidlash mumkinki, davr boshiga zanjirsimon uslubda hisoblangan bir qator ko'rsatkichlar kamroq tebranishga ega, chunki ular bazis davr ko'rsatkichlarga bog'liq holda hisoblanmagan, aksincha har bir oldingi yilgi davr ko'rsatkichlariga bog'liq. Shunday qilib, 2020 yilga nisbatan 2021 yilda ijobiy dinamikani ko'rsatib, o'sish sur'ati 111%ni tashkil etdi.

¹⁹Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi



3-rasm. Toshkent shahrida turar-joy binolariii foydalanishga topshirish dinamikasi²⁰

2013-2022 yillar davr oralig'ida bo'lgan dinamika qatorlarini aniqlash maqsadida Toshkent shahridagi boshqaruv kompaniyalarining tarkibiy tahlili o'tkazildi (2-jadval).

Ta'kidlash joizki, boshqaruv kompaniyalari va boshqaruv servis kompaniyalari (keyingi o'rinlarda – boshqaruv kompaniyalari) yuridik shaxs va tijorat tashkiloti sifatida taqdim etilgan bo'lib, tashkiliy tuzilmasi bo'yicha o'xshash va bir-biridan uncha farqlanmaydi. 2022 yil boshqaruv kompaniyalari yuqori o'sish sur'atlarini ko'rsatib, ular tomonidan boshqariladigan uy-joylar soni esa 10 077ta yetdi. Uy-joy mulkdorlari shirkatlari, aksincha, past dinamikaga ega, mazkur davrda ular tomonidan boshqariladigan uylar soni ham boshqaruv kompaniyalariga qaraganda past bo'lib, 355 tani tashkil etadi.

2-jadval.

Toshkent shahridagi boshqaruv kompaniyalarining tarkibiy tahlili²¹

Ko'rsatkich	Yil									
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
Boshqaruv kompaniyalari	11	12	13	27	62	74	86	291	284	
<i>O'sish sur'ati, %</i>	183,3	109,1	108,3	207,7	229,6	119,4	116,2	338,4	101,1	
Uy-joy mulkdorlari shirkatlari	1331	1346	1406	2378	1498	2071	2161	2060	113	
<i>O'sish sur'ati, %</i>		101,1	104,5	169,1	63,0	138,3	104,3	95,3	5,5	


Uy-joy sohasida innovatsion boshqaruvni ta'minlash jadal rivojlanayotgan axborot jamiyati va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sharoitida uy-joy kommunal xizmatlari sifati va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirishning ajralmas talabiga aylanib bormoqda. Zamonaviy chaqiruvlar sharoitida faqat yangi texnologiyalar va innovatsion boshqaruv usullari uy-joy sohasi rivojlanishidagi salbiy tendensiyalarni o'zgartirishi mumkin. Axborot, kommunikatsiya va muhandislik innovatsiyalari uy-

²⁰Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

²¹Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

joy kommunal xo'jaligini rivojlantirish va takomillashtirishni rag'batlantirmoqda, aholi uchun xizmatlardan amaliy va iqtisodiy jihatdan foydalanish imkoniyatlarini oshirib barqaror rivojlanishni ta'minlamoqda.

Innovatsion boshqaruv resurslarni yetkazib berish zanjirini optimallashtirish, tarmoqdagi yuklamalarni muvozanatlash, xavfsizlik darajasini oshirish hamda real vaqt mobaynida qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun taqsimlangan aqlli boshqaruv tizimlari va vositalarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Uy-joy kommunal xizmatlari iste'molchilari innovatsion boshqaruv tizimiga jalb qilinib, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va hajmini nazorat qilish, xizmat ko'rsatish jarayonini boshqarish imkoniyati, uy-joy kommunal xizmatlaridan foydalanishlari to'g'risidagi to'liq ma'lumotga ega bo'lishadi. Uy-joy sohasida ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalarini tizimlashtirish 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Uy-joy sohasida innovatsion infratuzilma elementlari²²

Har bir xizmat guruhining manfaatdor tomonlari va boshqaruv funksiyalari tavsifi bilan uy-joy sohasi tomonidan innovatsion boshqaruv tizimida uy-joy kommunal xizmatlarni ko'rsatish jarayonini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi innovatsion xizmatlarni boshqarish jarayoni. Uy-joy sohasi tomonidan

²²Muallif ishlanmasi

ko'rsatiladigan xizmatlarning innovatsion boshqaruvini ta'minlash jarayoni uch bosqichdan iborat.

1-bosqich – uy-joy sohasida xizmatlar ko'rsatishda innovatsion boshqaruv tizimini ta'minlash bo'yicha kompleks strategiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan institutsional asoslar va tashkiliy-iqtisodiy salohiyatni ta'minlash.

2-bosqich – uy-joy sohasi korxonalarini innovatsion boshqaruvini tashkil etish, yangidan foydalanishga topshirilayotgan va mavjud uy-joylarni, shuningdek ko'rsatilayotgan uy-joy kommunal xizmatlarini yuqori texnologik standartlarga bosqichma-boqich o'tkazishni amalga oshirish.

